

**PAZANDACHILIK TERMINLARINING SHAKLLANISHIDA ICHKI
MANBALARNING O'RNI**

Mengnorova Qunduz Xolmurod qizi
Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tuman
ixtisoslashtirilgan maktabi ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi. Magistr.
Telefon: 95 270 01 03

Annotatsiya

Maqolada pazandachilik terminologiyasining shakllanishida va rivojlanishida ichki manbalarning o'rni va ahamiyati qay darajada ekanligi, ichki manbalar orqali so'z yasash yo'li bilan leksikaning boyishi, o'z qatlam, tub turkiy so'zlar ma'nolari o'rganilib, pazandachilik terminologiyasining boyib borishida asqatadigan jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pazandachilik terminologiyasi, o'z qatlam, turkiy taom nomlari, tub turkiy so'zlar, bug'ro, sut, panir, qazi, shilon

Introduction

Har bir tilning lug'at tarkibi tarixiy taraqqiyot natijasida boyib boradi. Lug'at tarkibining boyib borishi tilning ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tildan so'z o'zlashtirish orqali amalga oshishi yaxshi a'yon. Tildagi leksik qatlamlarni lingvistik tadqiq etish leksik- semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda juda muhimdir. Zotan, leksika tarix, madaniyat, fan va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so'z ma'nolarining o'zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul¹.

Ma'lumki, o'z qatlam har bir tilning shakllanish va taraqqiyot bosqichlarida ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan so'zlardan tashkil topadi. Tilshunoslikda leksikaning ichki imkoniyatlar yordamida rivojlanishida quyidagi hodisalar asosiy omil sanaladi:

- 1) ichki manbalar orqali so'z yasash yo'li bilan leksikaning boyishi;
- 2) eskirgan, tarixiy va umuman eski obidalarda bo'lgan lug'aviy birliklar asosida leksikaning boyishi;
- 3) adabiy til leksikasining dialektik so'zlar hisobiga boyishi².

O'z qatlam deganda, aslan shu tilniki bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasallishlar, shuningdek, o'z affiks bilan boshqa til so'zlaridan hosil qilingan leksemalar tushuniladi³. Shu nuqtai nazardan, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan o'z qatlamga doir taom nomlarini quyidagicha guruhlash mumkin: a) tub turkiy so'zlar; b) tub turkiy so'zlardan yasalgan yangi leksemalar; v) o'zlashmalardan turkiy qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yuzaga kelgan so'zlar. Navoiy asarlari tilida taomga doir biz aniqlagan 56 leksema qo'llanilgan bo'lib, shundan 30 tasini turkiy so'zlar, 19 tasini forsiy, 6 tasini arabiy, 1 tasini xitoycha 2 tasini hindcha o'zlashmalar tashkil etadi. Demakki, taomga oid aniqlangan leksik birliklarning 53 % i turkiy

¹ Abdushukurov B. «Qisasi Rabg'uziy» leksikasi. Filol. f. d....diss. avtoreferati. -T.: 2017. -B. 17.

² O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. Uch jildlik. -T.: FAN, 1991. -B. 128.

³ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: O'zbekiston, 1992. -B. 173.

soʻzlardan iborat.

Turkiy taom nomlar

1. Oʻtmak - non (ANATIL, 3 j. 612-bet).
2. Chalpak - chalpak (ANATIL, 3 j. 119--bet).
3. Koʻmoch / Kumoch - qoʻrga koʻmib pishiriladigan non.
4. Kuloch – 1. Holvaga oʻxshash bir tur shirinlik. 2. Sharbat, bodom va qaymoq solib qilingan kulcha. (nabotiy kuloch birikmasi uchraydi)
5. Umoch (yovgʻon umoch).
6. Jugʻrot (qatiq) (NAL. 237-bet).
7. Qatlama - qatlama (ANATIL, 4 j. 40-bet).
8. Quymogʻ - quymoq (ANATIL, 4 j. 75-bet).
9. Tutmoch - pishgan taom turi; xamir oshi, ugra osh. (ANATIL, 3 j. 162-bet).
10. Ushoq osh - ugra osh, tuppa (NAL, 628-bet).
11. Bulamogʻ - bulamoq, atala (ANATIL, 1 j. 331-bet).
12. Bugʻro - bugʻdoyni oqlab pishiriladigan va katta yigʻinda tortiladigan ovqat (NAL, 139-bet).
13. Shilon / Shulon - shulon, umumiy ovqat; podshoh ziyofati (NAL. 696-b.)
(Izoh: ANATIL - Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati; NAL - Navoiy asarlari lugʻati).
Soʻz turmushdagi yangiliklarni, kishilar faoliyatini, voqea-hodisalarni ifodalovchi vositadir. Tilda hayot uchun zarur turli yangi soʻzlar paydo boʻla borganidek, turmush uchun keraksiz soʻzlar isteʼmoldan chiqib ketadi. Eskirganligi, yaroqsizligi tufayli isteʼmoldan chiqqan soʻz va iboralar lingvistikada arxaizm deb ataladi⁴. Bizningcha, **bugʻro** va **shilon** kabi.

Tub turkiy taom nomlari

Oʻzbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi va bu til uchun turkiy tillarning negiz leksikasi qadimiy asos hisoblanadi. Shu sababli ham oʻzbek tili soʻz boyligining qadimiy oʻz negizi aslida turkiy tillarning oʻziniki boʻlgan tub turkiy soʻzlardan iborat. Koʻrinadiki, tub soʻzni belgilovchi asosiy mezon, birinchidan, bu soʻzning genetik jihatdan oʻsha tilniki ekanligi, ikkinchidan, uning qadimiy davrlarga oidligidir⁵.

Tub turkiy taom nomlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish lozim:

bugʻro - bugʻdoyni oqlab pishiriladigan va katta yigʻinda tortiladigan ovqat” (NAL, 139-bet);
sut - sut; **panir** - pishloq (NAL. 500-b.; 17-jild, 170-b. HPM.); **yogʻ** - (MAT, 17-jild, 410-bet),
qazi - otning toʻsh va peshnop goʻshti; shunday goʻshtdan otning yoʻgʻon ichagiga tiqib tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti. (OʻTIL, 5 j.)
shilon/shulon - shulon, umumiy ovqat; podshoh ziyofati (NAL. 696-b.)
Nomlari qayd etilgan taom nomlari faqat oʻzakdan iborat boʻlib, ular biror soʻz yasovchi

⁴ Mutallibov S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. -T.: Fan, 1959. -B. 180.

⁵ Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -T.: FAN, 1985. -B. 135.

qo'shimcha bilan hosil qilinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Дис. ... канд. филол. наук. - Тошкент, 1983. - С. 90.
2. Ўзбек адабий тилининг таракқиёти. 3-жилд. Лексика. -Т.: ФАН, 1991. -Б.152.
3. Навоий асарлари луғати. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 568 б.
4. Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. -Т.:1989. -Б.226.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. И-В жилдлар. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 2007.
6. Ziyonet.com
7. Google.com